**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**ADTI rektori M.M.Madazimov**
**______________**
**“ 2 ________ 2025 yil**

# TIBBIYOT KASBIGA KIRISH
# (BEMOR BOLALARNI PARVARISH QILISH)
# ISHCHI O`QUV DASTURI

**1 kurs**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot |
| Ta’lim sohasi: | 910000 -Sog‘liqni saqlash |
| Ta’lim yo‘nalishlari: | 60910300- Pediatriya ishi |

**Andijon – 2025 yil**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>TKK1204</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>1</td><td colspan="2">Kreditlar<br>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Xaftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tibbiyot kasbiga kirish (Bemor bolalarni parvarish qilish)</td><td>30</td><td>30</td><td>60</td></tr>
<tr><td>2</td><td colspan="5">I. Fanning mazmuni.<br>Fanning o`qitishdan maqsad</b> - talabalarga turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishni, kasb etikasi va deontologik tamoyillarni, bemor xamda kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalari haqida bilim, ko`nikma va malakani shakllantirishdir.<br>Fanning vazifalari:<br>– deontologiya va etika tamoyillarini talabalar ongiga singdirish;<br>– klinikaning qabul bo`limi, bemorlar davolanadigan bo`limi, reanimatsiya va intensiv terapiya bo`limlari tuzilmalari, ularning ishini tashkil qilish asoslari bilan tanishtirish;<br>– bemorlarni qabul qilish qoidalarini o`rgatish;<br>– bolalar va o`smirlarni statsionar davolash tizimida parvarish qilishni o`rgatish;<br>– davolash muassasalaridagi tizimni o`rgatish;<br>– kasalxona bo`limlariga yotadigan va yotgan bemorlarga sanitar ishlov berish qoidalarini o`rgatish;<br>– kasalxona ichi infeksiyasi to`g`risida tushuncha berish va uni oldini olish qoidalari bilan tanishtirish;<br>– kasallik turi va og`irlik darajasi, bemorning yoshiga qarab ovqatlantirishni o`rgatish;<br>– dori vositalarini qabul qilish usullari va kiritish yo`llarini o`rgatish;<br>– bemorlarni tezkor va rejali operatsiyalarga tayyorlashni o`rgatish;<br>– jonlantirish bo`limida davolanayotgan va jonlantirish bo`limidan chiqqan bemorlarni parvarish qilishni o`rgatish;<br>– hayot uchun havfli xolatlarda (yurakning to`xtashi, nafas olishning buzililshi, qon ketishi, zaxarlanish, kuyish, sovuq qotish, aspiratsiya) bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko`rsatishni o`rgatish;<br>– laborator tekshiruv uchun biologik materiallarni to`plashni o`rgatish;</td></tr>
</table>

– bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to`g`risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o`rgatish.

**II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg`ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Amaliy mashg`ulotlar.**

fan bo‘yicha mashg‘ulotlar nazariy va amaliy qismi o‘zaro bog‘liq holda quyidagi mavzular bo`yicha o‘tkaziladi.

| № | Mashgulot mavzulari | Soat | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **Nazariy qism (50%)** | **Klinik o`quv amaliyoti (50%)** | **Jami 100%** |
| | **Amaliy mashg`ulot**. Bolalarga va o`smirlarga davolash-profilaktik yordam ko`rsatishning zamonaviy tamoyillari. JSST va BMT ning “Bolaga yaxshi munosabatli shifoxona” bolalar fondining tashabbus tamoyillari. Bolalar parvarishi va tarbiyasida tibbiyot xodimlarining o`rni. Tibbiyot xodimlari faoliyatining etik-deontologik tamoyillari.<br>**Klinik o`quv amaliyoti:**<br>1.Birlamchi tibbiy muolajalarni bajarish (antropometriya, nafas olish sonini o`lchash, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o`lchash).<br>**Interfaol o`yin:** Rotatsiya | 1 | 1 | 2 |
| **2** | **AMALIY MAShG`ULOT**. Bolalar kasalxonasining tuzilishi. Bolalar kasalxonasini ishlash tartibi. Dezinfeksiya turlari. Dezinfeksiyalovchi suyuqliklarni tayyorlash va ishlatish texnikasi. | 1 | 1 | 2 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Bemor bolalar ota-onalarining tashrifi va oziq-ovqat olib kelishini nazorat qilish.<br>**Klinik o`quv amaliyoti:**<br>Joriy va yakuniy dezinfeksiya o`tkazish<br>**Interfaol o`yin:** “Rotatsiya” usuli | | | | |
| | | 3 | **AMALIY MAShG`ULOT**. Bolalar shifoxonasi xodimlarining shaxsiy gigienasi. Turli yoshdagi sog`lom va bemor bolalarni shaxsiy gigienasi. Chaqaloqlarni cho`miltirish texnikasi. Katta yoshdagi bemor bolalarni xojatga chiqishida yordamlashish.<br>**Klinik o`quv amaliyoti:**<br>Og`ir yotgan bemorga tuvak (sudno) tutish texnikasi;<br>**Interfaol o`yin:** SVOT- tahlili | 1 | 1 | 2 | |
| | | 4 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Ko`z, quloq, sochlarni parvarishi, qizlar gigienasini o`ziga xosligi. Turli yoshdagi bolalarni kiyim kechaklari, poyafzali.<br>**Klinik ukuv amalieti:**<br>1.Og`ir yotgan bemor quloqlariga, burniga, sochlariga va og`iz bo`shlig`iga gigienik ishlov berish va taxorat kilish (oraliq soxasini yuvish) texnikasi;<br>**Interfaol o`yin:** Rotatsiya | 1 | 1 | 2 | |
| | | 5 | **AMALIY MAShG`ULOT**. Bolalarni shifoxona sharoitida ovqatlantirishni tashkil qilish. Parxez taomlari.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish (0 dan 2 yoshgacha | 1 | 1 | 2 | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | sunniy oziqlanishini inobatga olish); Turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish (2 yoshdan 5 yoshgacha); **Interfaol o`yin:** Galereya bo`lab sayohat | | | | |
| | | 6 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Oshxona va ovqat tarqatish xonasini jixozlanishi. Idish tovoqlarni yuvish va dezinfeksiya qilish. **Klinik o`quv amaliyoti:** Turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish (katta yoshdagi og`ir bemorlar bolalarni); **Interfaol o`yin:** Rotatsiya usuli | 1 | 1 | 2 | |
| | | 7 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Dorilarni organizmga yuborish yo`llari (enteral, parenteral). Dorilarni organizmga yuborishda kuzatiladigan asoratlar (nafas yo`llariga tiqilishi, dorili, havoli emboliya, infiltrat, abssess, gematoma, igna sinishi, anafilaktik shok). Kateter bilan bog‘liq infeksiyalarni oldini olish. Tomir ichiga qo‘yilgan kateterlarga parvarish **Klinik o`quv amaliyoti:** Dori vositalarini yuborish yo`llari va davo muolajalarini o`tkazish. **Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasidan foydalanildi.** **Interfaol o`yin:** T -tizim | 1 | 1 | 2 | |
| | | 8 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Termometriya. Tana xaroratini o`lchash texnikasi va uni | 1 | 1 | 2 | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | registratsiya qilish. Isitmalayotgan bolalarni parvarishlash (BKIUOB (IVBDV) – isitmatayotgan bolalarga yordam ko`rsatish).<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Birlamchi tibbiy muolajalarni bajarish (termometriya).<br>**Interfaol o`yin: Svot-tahlili** | | | | |
| | | 9 | **AMALIY MAShG`ULOT**. Tashxislash maqsadida laborator tekshirish uchun biologik material (qon, siydik, ahlat, balg`am va boshqalar)ni yig`ish, saqlash va jo`natish tartib qoidalari. Bemorni ultratovush, endoskopik va rentgenologik tekshiruvga tayyorlash tartibi va qoidalari.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Birlamchi tibbiy muolajalarni bajarish (arterial qon bosimini o`lchash);<br>**Interfaol o`yin:** Rotatsiya | 1 | 1 | 2 | |
| | | 10 | **AMALIY MAShG`ULOT**. Bemor bolalarni nazorat qilish va parvarishlash. Teri kasalliklarida tashqi dori vositalarini ishlatish. Yotoq yarasini oldini olish va davolash.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Og`ir yotgan bemorlarda yotoq yaralar profilaktikasini o`tkazish;<br>**Interfaol o`yin:** Galereya bo`ylab sayohat | 1 | 1 | 2 | |
| | | 11 | **AMALIY MAShG`ULOT**. Davolovchi vannalar. Teri kasalliklarida bemor bolalarni (EKD, bichilish, issiqlik, soxta furunkulyoz, pufakcha) nazorat qilish va | 1 | 1 | 2 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | parvarishlash.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Teri kasalliklarda bemorlar parvarishni o`tkazish<br>**Interfaol o`yin:** akademik munozara | | | |
| | | 12 | **Amaliy mashgulot.** Bemor xonasini sanitar holatini nazorat qilish, toza va ishlatilgan choyshablarni saqlash va almashtirish tartibi.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Og`ir yotgan turli yoshdagi bemorlarning choyshabini, kiyimini (kuylagini) almashtirish texnikasi;<br>**Interfaol o`yin:** Rotatsiya | 1 | 1 | 2 |
| | | 13 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Bemorni qabul qilish. Bemorning funksional holatini baholash. Bemorlarni saralash. Bemor bolalarni tashish (transportirovka) qoidalari. Turli yoshdagi va og`ir bemor bolalarni tashish (transportirovka) hususiyatlari.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Bemorlarni transportirovka qilish;<br>**Al-Farobi nomli Qozog'iston Milliy Universitetining bakalavriat ta'lim dasturiga oid namunaviy o'quv rejasidan foydalanildi**<br>**Interfaol o`yin:** Galereya bo`ylab sayohat. | 1 | 1 | 2 |
| | | 14 | **AMALIY MAShG`ULOT.** Nafas olish a'zolari, yurak qon-tomir tizimi, hazm a'zolari, siydik hosil qilish va ajratish a'zolari kasalliklarida bemor bolalarni parvarishlash va nazorat qilish.<br>**Klinik o`quv amaliyot:**<br>Hayot uchun xavfli holatlarda | 1 | 1 | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | birlamchi tibbiy yordam ko`rsatish (kuyish, muzlanish, elektr jaroxat, cho`kish, is gazi bilan zaharlanish, xushdan ketish)<br>**Interfaol o`yin:** SWOT taxlili | | | |
| 15 | **AMALIY MAShG`ULOT.**<br>Birinchi yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy jihatlari.<br>Shoshilinch (zudlik bilan) holatlarning tasnifi. Shaxsiy xavfsizlik.<br>Bolalarda zaharlanishni oldini olish va birinchi yordam ko`rsatish. Ovqatdan, alkagoldan zaharlanish. Dori vositalaridan zaharlanish.<br>**Klinik o`quv amalieti:**<br>Nafas va yurak to`xtaganda shoshilinch birinchi yordam (sun'iy nafas berish, yurakni bilvosita uqalash) berish.<br>**Al-Farobi nomli Qozog'iston Milliy Universitetining bakalavriat ta'lim dasturiga oid namunaviy o'quv rejasidan foydalanildi**<br>**Interfaol o`yin:** "Rotatsiya" usuli<br>**YAKUNIY NAZORAT** | 1 | 1 | 2 |
| Jami | | **15** | **15** | **30** |
| | | | | |

***Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar 50% nazariy va 50% klinik o'quv amaliyotidan iborat. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

- O‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish imqoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg‘otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imqoniyatini ta’minlash;

Talabani nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

**Klinik o‘quv amaliyotni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Talabalarning o‘quv klinik amaliyoti kafedraning klinik bazalari bo‘limlarda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotda amaliy ko‘nikmalarga o‘rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o‘rganilayotgan ko‘nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo‘llash talab etilsa (pikfloumetr, spiroanalizator, tonometr, otoskop, oftalmoskop va sh.o‘.), unda ularning ta’sir mexanizmi, qo‘llash texnikasi tanishtiriladi.
2. Ko‘nikmani namoyish qilib berish va ko‘p marta mashq qilish – bunda ko‘nikmani bosqichlarga to‘g‘ri taqsimlashga alohida e’tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya’ni o‘rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko‘nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish, o‘zaro bir-birida ko‘p marta mashq qilish va faqat ko‘nikmaga ega bo‘lgandan so‘ng bemorda qo‘llaguncha, har bir bosqichni taxlili namoyish qilinadi.
3. Xulosa – o‘rganayotgan shaxs bilan ushbu ko‘nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo‘llash. So‘rov asosida birlamchi bo‘g‘inning o‘maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O‘qitish jarayonida yuzaga kelgan muammmolarni aniqlash va hal qilish.

Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo‘lishi lozim (kafedraning uslubiy qo‘llanmasida kasbiy yo‘riqnomalar batafsil yoritilgan, o‘quv xonasi devoriga sxema ko‘rinishida osib qo‘yilgan bo‘lishi lozim).O‘qituvchi nazorat qiladi va kerak bo‘lganda talabalar ishidagi

| | |
|---|---|
| | xatoliklarni to‘g‘rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o‘qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so‘ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo‘ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o‘qitilayotgan talabaning amaliy ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirganligini baholashga tayyor bo‘lishlari lozim. Mashg‘ulot so‘nggida o‘qituvchi har bir talabaning amaliy ko‘nikmani o‘zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko‘nikmani o‘zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg‘ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi.<br>***Modul davomida egallanadigan amaliy ko‘nikmalar ro‘yhati:***<br>1. Antropometriya. Bolani vaznini va bo’yini o’lchash.<br>2. Bolani bosh aylanasi va ko’krak aylanasini o’lchash.<br>3. Bolalarni nafas sonini aniqlash.<br>4. Bemorlarni qon bosimini aniqlash.<br>5.Og’ir yotgan bemorga tuvak tutish.<br>6.Og’ir yotgan bemorni zond orqali ovqatlantirish.<br>7.Bemor bolalarni chov oralig’ini yuvish<br>8.Bemor bolalarni terisini parvarishlash.chaqaloqlarni chumiltirish.<br>9.Bemor bolalarni soch,quloq,buruniga ishlov berish.<br>10.Og’ir yotgan bemor bolalarni ovqatlantirish.<br>11.Og’ir yotgan bemorlarni transportirovka qilish.<br>12.Tana harorati ko’tarilgan bemor bolaga yordam berish<br>13.Ekstremal holatlarda birinchi yordam berish<br>14.Puls sonini aniqlash.<br>15.Yotoq yaralarda birlamchi ishlov berish.<br>**Ushbu amaliy ko‘nikmalarni bajarishda va o‘zlashtirishda Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina saytidan foydalanish tavsiya etiladi.**<br>**IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**<br>**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular**<br>1.O’zbekistonda emlov haritasi va emlash o’tkazish tartibi. - 2 soat<br>2.Dezenfeksiya suyuqliklari va ularni tayyorlash qoidalari. - 2 soat<br>3.Tibbiyot xodimlarini (shifokorlar,hamshiralar,kichik tibbiyot xodimlariga qo’yiladigan) gigiyenik talablar. - 2 soat<br>4.Organizmni chiniqtirish usullari. - 2 soat<br>5.Akseleratsiya va uning turlari. - 2 soat<br>6.O’smirlar o’rtasida zararli odatlar(chekish,alkogolizm) oldini olish,sog’lomlashtirish. - 2 soat |

| | |
|---|---|
| | 7.Bolalarda avitaminoz va gipovitaminozlar. - 2 soat<br>8.Nerv psixik jixatdan giperaktiv bola. - 2 soat<br>9.Xozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari. - 2 soat<br>10.Patsient bilan verbal va noverbal muloqot ko`nikmalari. - 2 soat<br>11.Bemorlarda yotoq yaralarini oldini olish. - 2 soat<br>12.Nafas yo'llari yallig'langanda vibratsion massajning ahamiyati. - 2 soat<br>13.Elektrotravmada birinchi yordam. - 2 soat<br>14.Bolalar ovqatdan zaxarlanganda bbirinchi yordam. - 2 soat<br>15.Bemor bolalardan balg'am yigi'sh va tartibi. - 2 soat<br>**Jami-30 soat**<br>***Modul bo'yicha talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:***<br>- Modul bo'yicha talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:<br>- Referatlar tayyorlaydi va ximoya qiladi<br>- Prezentatsiyalar tayyorlaydi.<br>- Organayzerlar tuzadi<br>- Dokladlar tayyorlaydi.<br>- Muammoga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechadi.<br>**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**<br>Pediatriya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.<br>Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:<br>- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion<br>zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;<br>- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;<br>- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;<br>- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; |

| | |
|---|---|
| | - berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayerlash;<br>- modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish;<br>- vaziyatli va klinik muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;<br>- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.<br>- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k. |
| **3** | **V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar**<br>UK 1 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;<br>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;<br>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;<br>UK 4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;<br>UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;<br>UK 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;<br>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;<br>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;<br>UK 4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;<br>UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;<br>UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;<br>UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;<br>UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning |

kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;
UKK 5. Tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.
1 UK- umumiy kompetensiya
2 UKK – umumiy kasbiy kompetensiya

**4** **VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.**

- ma`ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruxlarda ishlash;
- jamoa bo`lib ishlash;
- taqdimotlar tayyorlash;
- dalolatnomalar yozish;

**5** **VII. Talablar kreditlarni to‘plash tartibi.**

Pediatriya moduli bo‘yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma’lumot modul bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi. Talabalarning modul bo‘yicha o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YAN)

Modul bo‘yicha talabaning semestr (o‘quv yili) davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi.

| *№* | *Baxolash turi* | *Maksimal ball* | *Kredit soni* |
|---|---|---|---|
| 1 | Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN) | 100 | 2 |
| 2 | Yakuniy nazorat (YaN) | 100 | - |
| | **JAMI** | 100 | 2 |

Modulga ajratilgan 2 kreditni talaba JN davomida yig‘adi.

JORIY NAZORAT (JN)

JNda talabaning modul mavzulari bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko‘zda tutiladi. Modul bo‘yicha JN og‘zaki, o‘rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma’lumotlarini o‘rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg‘ulot materiallarini o‘zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta’limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi hisobga olinadi.

Har bir mashg‘ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o‘tish bali 55 ball.

Joriy nazoratda saralash (o‘tish) ballidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Joriy nazoratda talaba ajratilgan kreditni to‘liq to‘plashi shart, shundagina u YAN kiritiladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo‘yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

**Fan bo‘yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:**

| **Ball** | **ECTS Baho** | **ECTS ning ta’rifi** | | **Baho** | **Ta’rifi** |
|---|---|---|---|---|---|
| 86-100 | A | "a’lo" - a’lo natija, minimal hatoliklar bilan | Tibbiyot kasbiga kirish (Bemor bolalarni parvarish qilish) modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga | 5 | a’lo |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo‘llay olishi;<br>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;<br>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;<br>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;<br>modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo‘llay olishi; | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy vamustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 81-85 | B | "juda yaxshi" - o‘rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan | Tibbiyot kasbiga kirish (Bemor bolalarni parvarish qilish) modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;<br>standard vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; | 4 | yaxshi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;<br>amaliy mashg‘ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;<br>modul dasturida tavsiya qilinganasosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;<br>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| | 71-80 | C | "yaxshi" - o‘rtacha natija, | Tibbiyot kasbiga kirish (Bemor bolalarni parvarish qilish) modul dasturining | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | sezilarli hatoliklar bilan | barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;<br>standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;<br>amaliy mashg‘ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;<br>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;<br>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhlimuhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo‘lishi lozim; | | |
| | 60-70 | D | "qoni-qarli" - sust natija, qo‘pol kamchilik-lar bilan | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;<br>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishi;<br>javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo‘yicha asosiy | 3 | Qoni qarli |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to‘liq bajara olishi;<br>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;<br>modulining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;<br>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;<br>o‘qilayotgan modul bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 55-59 | E | "o‘rta" - minimal natijaga teng | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;<br>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;<br>javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo‘l qo‘yganda, modul bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to‘liq bajara olishi;<br>kompetensiyalarni mustaqil emas vahatoliklar bilan egallashi;<br>modulining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;<br>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;<br>o‘qilayotgan modul bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlardapedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | | |
| | 31-54 | FX | "qoniqar-siz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo‘shimcha mustaqil o‘zlash-tirishi zarur | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa;<br>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa;<br>amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | 2 | Qoni qarsiz |
| | 0-30 | F | "mutloq qoniqarsiz" to‘liq qayta o‘zlash-tirishi lozim | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa;<br>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa;<br>amaliy ko‘nikmalarga va | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | | |

**YAKUNIY NAZORAT (YAN)**

JNga ajratilgan kreditlarni to‘liq to‘plagan talaba YANga kiritiladi. YANda talabaning bilim, ko‘nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAN modul bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tugaganidan so‘ng yozma shaklida o‘tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YANda saralash balini (55 ball) yig‘a olmagan talaba YANdan o‘tmagan va modulni o‘zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to‘liq yig‘gan bo‘lsa ham).

Ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o‘tkazish jarayoni davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, modul bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi

| | |
|---|---|
| | tomonidan nazorat qilinadi.<br>**Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti.Kasb-hunar kirish (BLS, Tibbiyot qonuni) fanining ishchi o'quv dasturidan quyidagi amaliy mash'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi**<br>**1. Kateter bilan bog'liq infeksiyalarni oldini olish. Tomir ichiga qo'yilgan kateterlarga parvarish**<br>**2.Bemorni qabul qilish. Bemorning funksional holatini baholash. Bemorlarni saralash.**<br>**3.Birinchi yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy jihatlari. Shoshilinch (zudlik bilan) holatlarning tasnifi. Shaxsiy xavfsizlik.** |
| **6** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Xalmatova B.T., Oxunov A.O., Karimov M.Sh. va boshq. Tibbiyot kasbiga kirish, Darslik. Тошкент. 2019 y.<br>2. Халматова Б.Т., Охунов А.О., Каримов М.Ш. и др. Введение в клинику, Учебник. Ташкент. 2019 г.<br>***Qo`shimcha adabiyotlar:***<br>1. Болаларга стационар ёрдам курсатиш. Методик қўлланма. (УзССВ №225 буйруги, 2013 й.)<br>2. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Болалар касалликлари, Дарслик. Тошкент.2013 й.<br>3. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Детские болезни, Учебник. Ташкент. 2013 г.<br>4. Краснов А.Ф. Сестринское дело. 1-2 том. Учебное пособие. Москва. 2000 г.<br>5. Кўкрак сути билан боқиш. Ўқув қўлланма. ЎзРССВ/ЮНИСЕФ, 2013.<br>6. Морозова Г.И. Основы сестринского дела. Ситуационные задачи. Практикум для медицинских училищ и колледжей. Москва. 2009 г.<br>7. Мухина С.А., Тарновская И.И. Основы сестринского дела, Практическое руководство к предмету. Москва. 2003 г.<br>8. Xalmatova B.T., Fayzieva O'.R., Satiboldieva N.R. Neonatologiyada hamshiralik ishi. Darslik. Ташкент. 2014 y.<br>9. Жураева М.А., Валиева М.Ю.,Ганиева И.У., Ашуралиева М.А. Клиническая лабораторная дтагностика. Учебник, Т. 2020<br>10. Нуритдинова Г.Т., Инакова Б.Б., Абдуллаева М.Э.Основы ухода за здоровыми и больными новорожденными детьми. Учебное пособие, Т.2020<br>11.Нуритдинова Г.Т., Инакова Б.Б., Абдуллаева М.Э. Янги туг`илган |

| | |
|---|---|
| | cog`лом ва касал чақалоқларни парвариш асослари. Ўкув кўлланма, Т.2020<br>12. Абдуллаева М.Э. Технология симуляционного обучения в педиатрии. Электронное учебное пособие. Ташкент, 2022 г.<br>13. Абдуллаева Мавжуда Эргашевна. Значение дефинитивных размеров и индексовых показателей физического развития детей во взаимосвязи с особенностями терморегуляции детей первого года жизни. (монография) ШИФР 14.00.09-ПЕДИАТРИЯ.<br>**Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti.Kasb-hunar kirish (BLS, Medical law) Kasbga kirish (BLS, tibbiy huquq) fanining ishchi o'quv dasturi 2024 *y***<br>***Internet saytlari:***<br>1. **Germaniyaning "Lecturio GmbH" sayti**<br>2. www.tma.uz<br>**1.** www.ziyonet.uz<br>**2.** www.medlincs.ru<br>**3.** www.medbook.ru.<br>**4.** http://www.labirint.ru/'books/570674/<br>**5.** http://www.labirint.ru/books/570674/<br>**6.** http://www.labirint.ru/books/569902/<br>**7.** http://www.labirint.ru/books/569744/<br>**8.** http://www.labirint.ru/books/561702/<br>**9.** http://www.labirint.ru/books/558529/<br>**10.** http://www.labirint.ru/books/553394/<br>**11.** http://www.labirint.ru/books/534343/<br>**12.** http://www.labirint.ru/books/532940/<br>**13.** https://en.sdu.edu.on/<br>**15. Al-Farobi nomli Qozog'iston Milliy Universitetining sayti.**<br>www.Kaznu.kz.<br>15.https:www.mayoclinik.org.<br>**1-kurs fan dasturiga Xitoy xalq respublikasi Shandon universiteti va AQSHnining mashxur Mayo klinikasining amaliyotda qo'llanilayotgan tibbiyot yangiliklarining elektron saytlari joylashtirildi.** |
| **7** | **Andijon davlat tibbiyot instituti BKP va poliklinik pediatriya kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan va** Markaziy uslubiy kengashining 2025 yil "____" ___________ dagi ___ - son qarori bilan tasdiqlandi.. |
| **8** | **Fan/modul uchun mas`ullar:**<br>Abdullayeva M.E. BKP va poliklinik pediatriya kafedrasi mudiri, dotsent |

| | | |
|---|---|---|
| | Abdulxakova R.M. | BKP va poliklinik pediatriya kafedrasi  assistenti |
| **9** | **Taqrizchi:** | |
| | Arzibekov A.G. | “Pediatriya»  kafedrasi mudiri, dotsent |
| | Ganiyeva M.Sh | “Gospital pediatriya” kafedrasi  mudiri, dotsent |